



O'ZBEK TILI LEKSIKASIDA ESKIRISH VA YANGILANISH JARAYONI

Arabboyeva Makxfuzaxon Akramjonovna

Andijon davlat pedagogika instituti

O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi

Esonaliyeva Feruzaxon Sobitjon qizi

Andijon davlat pedagogika instituti

O'zbek tili va adabiyoti 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: ushbu maqolada o'zbek tilshunosligi bo'limlaridan biri hisoblangan leksikologiyadan o'zbek tili leksikasida eskirish va yangilanish jarayoni haqida fikr yuritiladi va uning qay darajada muhim ekanligi yoritiladi.

Kalit so'zlar:leksik istorizmlar, leksik arxaizmlar, leksik neologizmlar, eski qatlam, zamonaviy qatlam.

Til tizim sifatida uzluksiz harakatda, rivojlanishda bo'lib turadi, bu uning ijtimoiy mohiyatidan kelib chiqadi: til va jamiyat, til va ong, til va tafakkur o'rtasidagi ikki tomonlama aloqadorlik ularning bir-biriga ta'sirini belgilaydi – jamiyatda bo'lib turadigan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, ilmiy-texnikaviy taraqqiyot, iqtisodiy va ma'rifiy sohalardagi islohotlar tilning lug'at boyligida yangi-yangi leksema va atamalarning yuzaga kelishini, ayni paytda ma'lum leksemalarning eskirib, tarixiy kategoriyaga aylanishini taqozo qiladi. Bu jarayon



tilning lug'at boyligida istorizm, arxaizm va neologizm kabi leksik birliklarni yuzaga keltiradi.

Leksik istorizmlar o'tmish voqeligi bo'lgan narsa-hodisalarning nomlaridir. Istorizmning muhim belgilaridan biri shuki, uning ifoda jihati (nomemasi) va mazmun jihati (sememasi) birga eskiradi, binobarin, leksema yaxlit holda hozirgi til birligi bo'lmay qoladi.

Leksik arxaizmlar – hozirgi paytda mavjud bo'lgan voqelikning eskirgan nomi yoki, aksincha, hozirgi tilda mavjud bo'lgan leksemaning eskirgan ma'nosi (sememasi). Demak, eskirish jarayoni leksemaga yaxlit holda yoki uning bir qismiga (ma'nolaridan biriga) aloqador bo'ladi, shunga ko'ra leksik arxaizm ikki turga bo'linadi.

Arxaizm-leksema – hozirgi paytda mavjud bo'lgan voqelikning eskirgan nomi:

Arxaizm-semema – hozirgi tilda mavjud bo'lgan leksemaning eskirgan ma'nosi.

Tilning leksik sathidagi yangilanish leksik va semantik neologizmlar shaklida namoyon bo'ladi.

Leksik neologizmlar tilda yangi paydo bo'lgan va yangilik bo'yog'ini yo'qotmagan leksemalar: sayt, server, skaner, marketing va b. Bunday neologizmlar til ixtiyoriga o'tgan lug'aviy birliklar bo'lganligidan umumtil neologizmlari sanaladi. Leksikologiyada, asosan, umumtil neologizmi o'rganiladi.¹

Zamonaviy qatlam

O'zbek tili leksikasining asosini shu qatlamga oid so'zlar tashkil etadi. Zamonaviy leksika ko'p hollarda umumiste'moldagi leksika yoki aktiv leksika tarzida ham ta'riflanadi. To'g'ri, bu qatlamga oid so'zlarning ko'pchiligi umumiste'molga oid, aktiv so'zlar bo'ladi. Lekin u yoki bu so'zning zamonaviy qatlamga oidligi uning umumiste'molda bo'lishi yoki

¹ H. Jamolxonov. "Hozirgi o'zbek adabiy tili". Toshkent – "Talqin" - 2005



aktiv qo'llanishi bilangina belgilanmaydi. Boshqacha aytganda, bu belgilari bo'lmagan so'zlar ham zamonaviy qatlamga oid bo'lishi mumkin.

Demak, eskilik yoki yangilik bo'yog'iga ega bo'lmagan so'zlar zamonaviy leksikani (zamonaviy qatlamni) tashkil etadi.

Eski qatlam

Eski qatlamga oid so'zlar asosiy farqli xususiyatlariga ko'ra ikki turga bo'linadi:

- 1) tarixiy so'zlar yoki istorizmlar;
- 2) arxaik so'zlar yoki arxaizmlar.

Istorizmlar

Istorizmlar tarixga oid (hozirgi kunda yo'q) narsa-hodisalarni bildiruvchi so'zlardir. Ma'lum davrlarda bor bo'lgan, ayrim narsa-hodisalar jamiyat taraqqiyotining keyingi bosqichlarida yo'q bo'lishi, o'tmish hodisasiga aylanishi mumkin. Shu bilan bog'liq holda bunday narsa-hodisalarning atamasi bo'lgan so'zlar ham tarixiylik kasb etadi, ya'ni tarixiy so'zga aylanadi. Misollar: sovut, omoch, qozi, cho'ri, hokim, baqqol, vazir kabi.

Arxaizmlar

Hozirda mavjud (zamonaviy) narsa-hodisalarning eskirib qolgan atamalari arxaizmlar (arxaik so'zlar) deyiladi. Misollar: ulus (xalq), lang (cho'loq), firqa (partiya), dorilfunun (universitet), tilmoch (tarjimon) va b.²

Neologizm

Yangilik bo'yog'i bor leksemaga neologizm deyiladi. Neologizm tilga umuman mansub bo'lishi yoki yakka shaxs nutqiga xos bo'lishi mumkin. Birinchisi umumtil

² Sh. Rahmatullayev. "Hozirgi adabiy o'zbek tili". Toshkent "Universitet" 2006



neologizmi deb, ikkinchisi individual nutq neologizmi deb yuritiladi. Leksemikada asosan umumtil neologizmi o'rganiladi. Individual nutq neologizmi uslubga xos hodisa deb qaraladi.

Neologizm – o'ta nisbiy tushuncha. Avvalo, til taraqqiyotining har bir bosqichi o'z neologizmiga ega bo'ladi, bir bosqichda neologizm deb qaralgan hodisa ikkinchi bosqichda ham neologizm bo'lishi shart emas. Masalan, 30-yillar nuqtayi nazaridan shpal-, seyalka-kabi leksemalar neologizm deb baholansa, hozirgi o'zbek tilida bular odatdagi, zamonaviy leksemaga aylangan; 20-yillar nuqtayi nazaridan neologizm deb qaralgan aeroplan-, yo'qsil-(proletariy) kabi leksemalar esa arxaizmga aylangan.³

So'zning neologizmlilik belgisi leksemaga yaxlit holda yoki uning bir qismiga (mas., ma'nolaridan biriga) aloqador bo'ladi, shunga ko'ra leksik neologizmquyidagi ikki turga bo'linadi:

Neologizm-leksema. Bunda leksema yaxlitligicha neologizm bo'ladi: devident, internet, faks, interfaks kabi.

Neologizm-semema. Bunda leksemaning o'zi emas, uning ma'nolaridan biri neologizm sanaladi. Bunda ko'k so'zining hozirgi tilda paydo bo'lgan <<dollar>> ma'nosini misol qilib ko'rsatish mumkin.⁴

Xulosa qilib aytganda, tarixiy leksemalar hozirgi kunda yo'q, narsa-hodisalarni bildiruvchi so'zlardir. Ma'lum davrlarda bor bo'lgan, ayrim narsa-hodisalar jamiyat taraqqiyotining keyingi bosqichlarida yo'q bo'lishi, o'tmish hodisasiga aylanishi mumkin. Shu bilan bog'liq holda bunday narsa-hodisalarning atamasi bo'lgan so'zlar ham tarixiylik kasb etadi, tarixiy so'zga aylanadi.

³ Sh. Shoabdurahmonov, M. Asqarova, A. Hojiyev, I. Rasulov, X. Doniyorov. "Hozirgi o'zbek adabiy tili" Toshkent "O'qituvchi" 1980

⁴ H. Jamolxonov. "Hozirgi o'zbek adabiy tili". "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti" Toshkent – 2013



Neologizmlar esa umuman yangi davrda paydo bo'lgan so'zlar sifatida tushunilmasligi kerak. Biror so'zni neologizm deb hisoblashda uning yangilik bo'yog'iga egaligi asosga olinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. H. Jamolxonov. "Hozirgi o'zbek adabiy tili". Toshkent – "Talqin" - 2005
2. Sh. Rahmatullayev. "Hozirgi adabiy o'zbek tili". Toshkent "Universitet" 2006
3. Sh. Shoabdurahmonov, M. Asqarova, A. Hojiyev, I. Rasulov, X. Doniyorov. "Hozirgi o'zbek adabiy tili" Toshkent "O'qituvchi" 1980
4. H. Jamolxonov. "Hozirgi o'zbek adabiy tili". "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti" Toshkent – 2013.